



YO'LOVCHILARGA QULAYLIK YARATISHDA AVTOSTANSIYA VA JAMOAT TRANSPORTI INTEGRATSIYASI

Radjabov Muhammadjon Ilhom o'g'li

Andijon Davlat Texnika Instituti bakalavr talabasi

Tel: +998931412411

@email: miradjabov777@gmail.com

Qosimov Sadriddin Urol o'g'li

Andijon Davlat Texnika Instituti bakalavr talabasi

Tel: +998930714169

@email: qosimovsadriddin1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yo'lovchilarga qulaylik yaratishda avtostansiya va jamoat transporti integratsiyasining ahamiyati tahlil qilinadi. Transport turlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali yo'lovchi oqimini samarali boshqarish, qatnov vaqtini qisqartirish hamda xizmat sifatini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, integratsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolar, jumladan, yo'nalishlar moslashuvining yetarli emasligi, jadval nomuvofiqligi va infratuzilma kamchiliklari yoritilib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy yechimlar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy shahar transport tizimini rivojlantirish va yo'lovchilar uchun qulay transport muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Jamoat transporti, avtostansiya, transport integratsiyasi, yo'lovchi oqimi, transport infratuzilmasi, harakat jadvali.

Kirish

Hozirgi kunda shaharlar va hududlar o'rtasida yo'lovchi tashish hajmining ortib borishi transport tizimini yanada samarali tashkil etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, avtostansiyalar va jamoat transporti turlari o'rtasidagi integratsiya yo'lovchilarga qulay xizmat ko'rsatishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Avtostansiyalar



uzoq masofali qatnovlarning markaziy nuqtasi bo'lib, shahar ichidagi avtobus, metro, marshrut taksi yoki boshqa transport vositalari bilan uyg'unlashganda yo'lovchilarning harakat jarayoni ancha soddalashadi. Jamoat transporti bo'yicha boyicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishi yuzasidan Ozbekiston respublikasi prezidentining 16.02.2023-yil PQ-59-sonli jamoat transporti tizimini isloh qilish chora tadbirlari togrisidagi qarori qabul qilindi. Zamonaviy transport tizimida integratsiya nafaqat yo'nalishlarning mosligi, balki yagona axborot maydoni, qulay bekatlar, qisqa piyoda masofalar va moslashtirilgan harakat jadvalini ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, jamoat transportining ko'proq rivojlanishi, aholining avtomobilga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishga, shaharlar orasidagi tirbandlikni pasaytirishga xizmat qiladi. Integratsiya jarayoni nafaqat transport vositalarining yo'nalishlarini moslashtirish, balki bekatlar joylashuvi, piyodalar uchun qulay masofalar, yagona to'lov tizimi va harakat jadvalining uyg'unligini ham o'z ichiga oladi. To'g'ri tashkil etilgan transport integratsiyasi yo'lovchilarning vaqtini tejash, transportdan foydalanish darajasini oshirish va shahar ichidagi tirbandliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, transport tarmoqlarining o'zaro bog'liqligi ekologik barqarorlikni ta'minlash va shahar infratuzilmasini samarali boshqarish imkonini yaratadi. Avtostansiya va jamoat transporti integratsiyasi — bu avtobus, metro, tramvay va boshqa transport turlarini yagona, uzviy tizimga birlashtirib, yo'lovchilar uchun uzatmalarni qulay, tez, arzon va soddalashtirilgan shaklga olib kelish tizimi. Transport rejalarida integratsiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: fizik integratsiya — transport terminal, avtostansiya va bekatlarning bir joyda yoki uzviy joylashuvi; vaqt va jadval integratsiyasi — marshrutlar orasida uzatmalar vaqtining optimallashtirilishi; to'lov integratsiyasi — bir xil chipta/tolov tizimi (masalan, elektron kartalar bilan bir necha turdagi transportdan foydalanish) Integratsiyaning afzalliklari va samaradorligi bir necha jabhalarda yaqqol ko'rinadi. Yo'lovchi qulayligi uchun xizmat qilgan holda samaradorlikni ham oshirish maqsad qilib qo'yilishi lozim. Birlashtirilgan transport tizimi sayohat vaqtini qisqartiradi va yo'lovchilarga uzoq turgan transportlar orasida qulay uzatmalar beradi va bu



transportga ishonchni oshiradi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadi: metro va feeder avtobuslari orasidagi integratsiya jamoat transporti samaradorligini oshiradi va samara ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Integratsiya yo'lovchilarni shaxsiy avtomobildan jamoat transportga o'tkazishga yordam beradi, bu esa tirbandlikni kamaytiradi, havo ifloslanishini pasaytiradi va shaharlarda barqaror transportni qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotlarda integratsiya transport tizimi xarajatlarini kamaytiradi, kirishni oshiradi, operatorlar uchun samaradorlikni mustahkamlaydi va natijada umumiy iqtisodiy foyda beradi.

Yo'lovchilar uchun binolar majmui rejalashtirilayotganda, yo'lovchilar kutish zali, kassalar, maishiy binolar, buyumlarni saqlash ombori va boshqa zarur xonalar birinchi qavatga o'rnashtirilib, perron va vokzaloldi maydoniga to'g'ridanto'g'ri tutashtirilishi lozim.

Avtovokzal (avtostansiya) ishining texnologik jarayoni avtovokzal (avtostansiya) xizmatlari ishining oqilona tashkil etilishi hamda bir sutkada avtobuslarni qabul qilish va jo'natish hamda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha bajariladigan operatsiyalarning o'zaro aloqasi va izchilligi asosida quriladi.

Avtovokzal (avtostansiya)ning harakat sxemasi bo'yicha avtobuslarning stansiya hududiga kirishi, unda harakatlanishi va undan chiqishi belgilanadi.

Harakat sxemasini ishlab chiqishda quyidagilarni nazarda tutish zarur;

- a) chiqish va kirishda o'ng tomonga burilishlarni qo'llash;
- b) harakatning har bir yo'nalishi uchun avtotransport vositalarining atrofdagi ko'chalardan qayrilib kelish manzillari;
- v) avtotransport vositalarining yo'lovchilarni chiqarish va tushirish platformalariga o'ng tomoni bilan (harakat bo'yicha) qo'yish;
- g) avtotransport vositalari berilishi va jo'nab ketishida eng kam manevr qilish;
- d) avtotransport vositalari harakati yo'llarining yo'lovchilar oqimi yo'li bilan kesishmasligi.



Yo'lovchilar harakati sxemasini o'zida aks ettirgan avtovokzal (avtostansiya) chizmasi quyidagilarning joylashishini qayd etishi lozim:

a) xizmat binolari, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatadigan binolar va yordamchi binolar, ularning vazifasi va tartib raqami;

b) kirish va chiqish eshiklari va ularning vazifasi;

v) yo'lovchilarga ma'lumot beradigan asosiy elementlar (avtotransport vositalarining jo'nash va kelish jadvallari, chiptalar narhi jadvali, shaharlararo qatnov yo'nalishlari sxemasi).

Stansiya hududi chizmasida, mavjud inshootlar va binolardan tashqari, quyidagilar belgilanadi:

a) avtotransport vositalari kirishi va chiqishi yo'nalishlari hamda yo'lovchilarning shaharga chiqishi yo'nalishlari ko'rsatkichlarini joylashtirish punktlari;

b) avtotransport vositalarining reyslar oralig'ida to'xtab turishi uchun belgilangan joylar (postlar)ning konturlari;

v) yo'lovchilarni chiqarish va tushirish uchun avtotransport vositalarining to'xtash joylari (postlar) tartib raqami bilan belgilangan holda platformalar(perronlar)ning vazifasiga ko'ra (kelish, jo'nash, tranzit) ixtisoslashtirilishi;

g) avtotransport vositalarini yuvish uchun zaxira postlar va ular majburiy texnik ko'rikdan o'tkaziladigan punktlar konturlari;

d) yengil taksilar va boshqa avtomobillar to'xtab turish joylari konturlari va ko'rsatkichlari. Avtovokzal (avtostansiya)ning asosiy kirish joyiga tutashib ketgan stansiya hududining bir qismi, qoidaga ko'ra, avtotransport vositalari to'xtashi uchun mo'ljallanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalari hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablar" jamoat transporti faoliyatini tartibga



soluvchi asosiy normativ hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur qarorning 44–50-bandlarida avtobus yo‘nalishlari o‘tadigan avtomobil yo‘llari, ko‘chalar, sun‘iy inshootlar va temir yo‘l kesishmalarining texnik holati qurilish normalari, avtomobil yo‘llarini saqlash va ta‘mirlash qoidalari hamda boshqa normativ hujjatlar asosida harakat xavfsizligi talablariga javob berishi shartligi belgilangan. Xususan, 45-bandga ko‘ra yo‘l va kommunal tashkilotlari rekonstruksiya yoki ta‘mirlash ishlarini boshlashdan kamida o‘n kun oldin davlat avtomobil nazorati organlarini xabardor qilishi hamda aylanib o‘tish yo‘llarini zarur texnik vositalar bilan jihozlashi lozim. 46-bandda avtobus yo‘nalishlari o‘tadigan yo‘llarni yopish faqat hokimliklar ruxsati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bilan kelishilgan vaqtinchalik harakat sxemasi asosida amalga oshirilishi qayd etilgan.

Shuningdek, 47–48-bandlarda muntazam avtobus qatnovi mavjud yo‘llarni saqlash, qishki xizmatni tashkil etish, yo‘llarning qatnovga yaroqliligi haqida yo‘l harakati qatnashchilarini ogohlantirish majburiyati yo‘l tashkilotlariga yuklatiladi. 49-band yo‘l harakatini tartibga soluvchi texnik vositalarni davlat standartlari asosida o‘rnatish tartibini belgilasa, 50-bandda tashuvchilar, avtostansiyalar va haydovchilarning yo‘l infratuzilmasidagi xavfli kamchiliklar haqida tegishli organlarga darhol xabar berish hamda haydovchilarning takliflarini maxsus jurnallarda qayd etish majburiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu normativ talablar avtobuslarda yo‘lovchilar tashish jarayonida xavfsizlikni ta‘minlash, yo‘l infratuzilmasini samarali boshqarish va transport tizimining barqaror ishlashiga xizmat qiladi.

Muammolar

Yo‘lovchilarga qulaylik yaratishda avtostansiya va jamoat transporti integratsiyasi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganda bir qator tizimli muammolar yuzaga keladi. Avvalo, transport turlari o‘rtasida jadval va yo‘nalishlarning moslashmaganligi yo‘lovchilarning ortiqcha vaqt yo‘qotishiga sabab bo‘ladi. Avtobuslar, marshrut taksilari yoki metro (yirik shaharlarda) harakati avtostansiya qatnov jadvali bilan uyg‘unlashmagani tufayli kutish vaqti ortadi hamda transportdan



foydalanish samaradorligi pasayadi. Ikkinchi muammo, infratuzilma yetishmovchiligi. Ko'plab avtostansiyalarda piyodalar uchun qulay o'tish joylari, yopiq bekatlar, axborot tablolarining yetarli emasligi yoki transport turlari o'rtasidagi masofa uzoqligi kuzatiladi. Bu ayniqsa yoshi katta yo'lovchilar, nogironligi bo'lgan shaxslar va yuk bilan harakatlanayotgan fuqarolar uchun noqulaylik tug'diradi. Shuningdek, yo'nalishlar kesishadigan hududlarda yagona transport tugunlari (transport hub) yetarli darajada shakllanmagan. Uchinchi muammo esa axborot tizimlarining integratsiyalanmaganligi. Yo'lovchilar ko'pincha bir nechta transport turining jadvali, chipta tizimi yoki marshrutlari haqida yagona platforma orqali ma'lumot ololmaydi. Elektron to'lov tizimlarining turli operatorlarga bo'linib ketgani ham transportdan foydalanishni murakkablashtiradi. Bundan tashqari tashkiliy va normativ muammolar ham mavjud. Ba'zi hollarda yo'l va kommunal tashkilotlari, tashuvchilar hamda mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi hamkorlik yetarli darajada emasligi sababli avtostansiya atrofida transport oqimini boshqarish samarali yo'lga qo'yilmaydi. Bu esa tirbandlik, xavfsizlikka tahdid va transport almashinuvida noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Yana bir muhim muammo — harakat xavfsizligi bilan bog'liq kamchiliklar. Avtostansiya hududlarida yo'l belgilarining yetishmasligi, vaqtinchalik aylanma yo'llarning to'g'ri tashkil etilmasligi yoki yo'lovchilar oqimining tartibga solinmagani avariya vaziyatlar xavfini oshiradi. Shu sababli transport integratsiyasi nafaqat qulaylik, balki xavfsizlik nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi.

Yechimlar

Yo'lovchilarga qulaylik yaratishda avtostansiya va jamoat transporti integratsiyasini takomillashtirish uchun bir qator tizimli yechimlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, transport turlarining harakat jadvalini o'zaro moslashtirish muhim hisoblanadi. Avtostansiyaga keladigan shahar avtobuslari, marshrut taksilari va boshqa jamoat transporti qatnovi uzoq masofali avtobuslar kelish-ketish vaqtlari bilan integratsiya qilinsa, yo'lovchilarning kutish vaqti kamayadi hamda transportdan foydalanish samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, transport



almashinuvi amalga oshiriladigan hududlarda yagona transport tugunlarini tashkil etish, piyodalar uchun xavfsiz o'tish yo'laklari, yopiq bekatlar va qulay kutish zonalarini barpo etish infratuzilma sifatini yaxshilaydi.

Axborot texnologiyalarini joriy etish ham muhim yechimlardan biridir. Yagona elektron chipta tizimi, mobil ilovalar orqali real vaqt rejimidagi jadval va marshrutlar haqida ma'lumot berish yo'lovchilarga transportdan foydalanishni soddalashtiradi. Shuningdek, avtostansiya hududlarida raqamli axborot panellari va navigatsiya belgilarini ko'paytirish yo'nalishlarni tez topishga yordam beradi. Tashkiliy jihatdan esa mahalliy hokimliklar, tashuvchilar va yo'l tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yo'l harakati xavfsizligi organlari bilan birgalikda transport oqimini boshqarish bo'yicha yagona strategiya ishlab chiqish zarur.

Bundan tashqari, harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida avtostansiya atrofidagi yo'llarni zamonaviy yo'l belgilari, svetoforlar va tartibga solish vositalari bilan jihozlash, vaqtinchalik ta'mirlash ishlari vaqtida aylanma yo'llarni oldindan rejalashtirish tavsiya etiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslar va yoshi katta yo'lovchilar uchun panduslar, liftlar hamda qulay kirish-chiqish yo'laklarini tashkil etish ham integratsiyaning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu kompleks choralar jamoat transporti tizimining barqaror ishlashini ta'minlab, yo'lovchilar uchun qulay, xavfsiz va samarali transport muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yo'lovchilarga qulaylik yaratishda avtostansiya va jamoat transporti integratsiyasi transport tizimining samaradorligi va xavfsizligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Transport turlari o'rtasida jadval va infratuzilmaning uyg'unlashmaganligi, axborot tizimlarining yetarli darajada integratsiyalanmaganligi hamda tashkiliy muammolar yo'lovchilarga noqulaylik tug'dirayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun yagona transport tugunlarini rivojlantirish, elektron to'lov va axborot tizimlarini joriy etish, yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda



mas'ul tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Kompleks yondashuv asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar jamoat transporti xizmatlari sifatini oshirib, yo'lovchilar uchun xavfsiz, qulay va barqaror transport muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) Nurdinov Murodali. "AVTOTRANSPORT TARMOG'I KORXONALARINI LOYIHALASH VA JIXOZLASH"
- 2) Development of coefficients for correcting the mileage of tires of specialized vehicles, taking into account work in career conditions, Journal of Hunan University (Natural Sciences)
- 3) Анализ критериев оценки энергетической эффективности грузовых автомобилей в условиях эксплуатации, Горный вестник
- 4) Transport oqimini o'rganish uslubi, Research and education
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidolari hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablar" haqidagi qarori
- 6) Ozbekiston respublikasi prezidentining 16.02.2023-yil PQ-59-sonli jamoat transporti tizimini isloh qilish chora tadbirlari togrisidagi qarori
- 7) www.lex.uz
- 8) www.gazeta.ru